

Mangliyeva Shaxnoza Akbar qiziBuxoro davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
pedagogikasi kafedrası magistri
mangliyevashaxnoza7@gmail.com**TALABALARDA MA'RIFATPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ASARLARINI QO'LLASHNING METODIK
IMKONIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishning metodik yondoshuvlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada sharq falsafasining asosiy tamoyillari va mutafakkirlarining axloqiy va ma'naviy ta'limotlari talabalarda ma'rifatparvarlikni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada, talabalarga Sharq mutafakkirlarining g'oyalarini o'rgatishda falsafiy tahlil, rolli o'yinlar, seminarlar, muhokama va shaxsiy baholash kabi metodlarni qo'llashning ahamiyati va samaradorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik, sharq mutafakkirlari, axloqiy fazilat, metodik yondoshuv, talaba tarbiyasi, falsafiy ta'limot, axloqiy tarbiya, pedagogik metod, zamonaviy ta'lim, ijtimoiy faoliyat, ma'naviy yuksalish, ta'lim jarayoni, onlayn resurslar, jamoaviy o'qitish.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТРУДОВ ВОСТОЧНЫХ
МЫСЛИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ**

Аннотация. Данная статья посвящена изучению методических подходов использования трудов восточных мыслителей в развитии просветительских качеств у учащихся. В статье анализируется, как основные принципы восточной философии и нравственно-духовные учения мыслителей могут быть использованы в формировании просвещения студентов. В статье подчеркивается важность и эффективность использования таких методов, как философский анализ, ролевые игры, семинары, дискуссии и личностная оценка, в обучении студентов идеям восточных мыслителей.

Ключевые слова: Просвещение, восточные мыслители, моральная добродетель, методический подход, обучение студентов, философское учение, нравственное воспитание, педагогический метод, современное образование, социальная активность, духовный рост, образовательный процесс, интернет-ресурсы, командное обучение.

**METHODOLOGICAL APPROACHES TO USING THE WORKS OF EASTERN THINKERS IN
DEVELOPING ENLIGHTENED QUALITIES IN STUDENTS**

Annotation. This article is devoted to the study of methodical approaches of using the works of Eastern thinkers in the development of enlightened qualities in students. The article analyzes how the main principles of Eastern philosophy and the moral and spiritual teachings of thinkers can be used in the formation of enlightenment in students. The article highlights the importance and effectiveness of using methods such as philosophical analysis, role-playing, seminars, discussion, and personal assessment in teaching students the ideas of Eastern thinkers.

Key words: Enlightenment, Eastern thinkers, moral virtue, methodical approach, student education, philosophical teaching, moral education, pedagogical method, modern education, social activity, spiritual growth, educational process, online resources, team teaching.

Kirish. "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "Yangi tahdidlar, jumladan, "Ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir", - deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ma'rifatparvarlik – bu insonning ma'naviy, axloqiy va ilmiy rivojlanishiga asoslangan, uni ko'proq tushunishga, bilim olishga va haqiqiy qadriyatlarni anglashga qaratilgan dunyoqarash va hayotiy pozitsiyadir. Ushbu tushuncha asosan Sharq madaniyatida, xususan, musulmon mutafakkirlarining asarlarida rivojlangan. Ma'rifatparvarlikda asosiy e'tibor shaxsning ichki dunyosini, ma'naviyatini va axloqini shakllantirishga qaratilgan. U insonning bilim olish, adolatni hurmat qilish, pokiza, axloqiy hayot kechirish va muhitga nisbatan mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu tushuncha, ayniqsa, ilmning, haqiqiy bilimning, mantiqiy tafakkurning va ma'naviy ongning o'sishi bilan bog'liqdir. Ma'rifatparvarlikni rivojlantirish orqali inson nafaqat ilmiy savodxonligini, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan ham mukammal bo'lishga intiladi. Ma'rifatparvarlik, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ta'limotlarida ilmiy va diniy jihatdan ham uyg'unlikni o'z ichiga oladi, chunki ular bilim olishni va ma'naviy yuksalishni bir-biridan ajratmaydilar.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning buguni va kelajagi uchun muhim bo'lgan g'oyalarni ko'tarib chiqishga va shu g'oyani amalga oshirish uchun izchil kurash olib borishgan. Har bir davrning o'z ma'rifatparvarlari bo'ladi. Masalan, Ahmad Donish 1869-yilda, ya'ni yurti vassalga aylantirilgan davrda "Biz – o'zbeklar qachongacha g'aflat uyqusida yotamiz, qachon qoloqlikdan qutulamiz", deya fikr yuritgan. Bu qoloqlikdan qutulish yo'lini u ma'rifatda ko'radi, xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlaydi. Keyinroq boshqa ma'rifatparvarlar ham shu g'oyani o'z asarlarida ilgari surganlar. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida vujudga kelgan jadidchilik harakati vakillari bu borada ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Ular 1906-yildan boshlab, Turkistonda "Taraqqiy", "Xurshid", "Tujjor", "Samarqand", "Oyina", "Buxoroyi Sharif", "Umid" kabi gazeta va jurnallar chiqarganlar, bosmaxona va nashriyotlar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochganlar, xayriya jamiyatlarini tuzganlar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qilish bilan birga olamshumul yangiliklarni ham ommaga yetkazishga harakat qilib, dunyoviy bilimlarni ham chuqur egallashga da'vat etganlar. Ma'rifatchilar xalqni milliy uyg'unlashga da'vat etib, "Najot – ilmu irfonda" deb bilganlar, xalqni ma'naviyat yo'liga boshlashga harakat qilganlar. Xalqni savodli qilish, erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham savodli bo'lishi uchun tinimsiz izlanganlar, kurashganlar. Bu kurashda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Bobo'xun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar fidokorona xizmat qilgan. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Abdulla Avloniy hazratlari yozgan ekanlar: "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak - tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur...".

Bunda Avloniy hazratlari tarbiyani bolaning salomatligi va saodati uchun eng muhim vosita sifatida ko'rsatgan. Tarbiya qilish – bu nafaqat jismoniy holatni yaxshilash, balki ruhiy va axloqiy jihatdan ham bolaning yuksalishi demakdir. Ular tarbiyani bolaning tanini pok tutish, maslakini tuzatish va yaxshi xulqlarni o'rgatish jarayoni sifatida ta'riflaydilar. Yaxshi tarbiya orqali bola nafaqat jismoniy salomatlikka, balki axloqiy poklikka ham erishadi. Avloniy tarbiya qiluvchini tabibga o'xshatadi. Tabib xastaning jismoniy kasalligini davolasa, tarbiya qiluvchi bola ruhiy va axloqiy "kasalliklarini" tuzatadi. Tarbiyachi bolaning ichki jihatlarga – jahl, yomon xulqlar va salbiy odatlarga qarshi kurashadi, ularni to'g'rilashga harakat qiladi. Bu yerda tarbiya qilishning nafaqat jismoniy, balki axloqiy va ma'naviy jihatlari ham ko'zda tutilgan. Avloniy hazratlari "yaxshi xulq"ni tarbiyaning eng muhim "davosi" sifatida ta'riflaydilar. Ular ta'kidlaydiki, bola yaxshi xulqni o'rganishi uchun unga tarbiyaning "davosi" berilishi kerak. "Poklik" esa tarbiyaning ustun asoslaridan biri sifatida ko'rilgan. Yani, bola faqat jismoniy emas, balki ma'naviy poklikni ham egallashi kerak. Bu uning axloqiy jihatdan yuksalishini ta'minlaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlarini qo'llash, o'zbek ta'lim tizimida o'quvchilarga chuqur bilimlarni, axloqiy fazilatlarni va insoniy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlarining asarlari, ayniqsa, falsafiy va axloqiy nuqtai nazardan yuksak ma'rifatni targ'ib qilishga qaratilgan, talabalarga fikrlash, ilmga bo'lgan intilish, adolat, mehr-oqibat, va insonparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga ma'rifatparvarlik va axloqiy fazilatlar bilan tanishtirish uchun Sharq mutafakkirlarining asarlari talabalarga ma'rifatparvarlik va axloqiy fazilatlar bilan tanishtirish uchun manba sifatida ishlatiladi. Misol uchun Ibn Sino, Forobiy va Al-Xorazmiy kabi

mutafakkirlarning asarlarini o'rgatish, talabalarga bilim olishning haqiqatga yaqin yo'llarini, fikrlashni kengaytirishni va axloqiy yuksalishni ta'minlaydi. Al-Farobiy va Ibn Sino kabi olimlarning asarlarida tafakkur va aqlning yuksalishi haqida fikrlar keltirilgan bo'lib, ulardan foydalanish, talabalarda bilimni qadrlash va haqiqatni izlash kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Munozara va bahslar ham juda yaxshi natija beradi. Sharq mutafakkirlarining asarlari asosida munozara va bahslarni tashkil etish, talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z qarashlarini rivojlantirishga undaydi. Masalan Ibn Sino va Al-G'azzoliyning axloqiy qarashlari haqida fikr almashish har bir talabani mustaqil va tanqidiy fikrlashga undaydi. Kichik guruh ishlarida mutafakkirlarning asarlaridan foydalanish, talabalarga o'zaro fikr almashish, ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal qilishda ma'rifatparvarlikni qo'llash imkonini beradi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, adolat, va mehr-muhabbat kabi tushunchalar ko'p uchraydi. Talabalarga bu tushunchalarni o'rgatish orqali ular nafaqat ilm olishga, balki ijtimoiy muammolarga qaratilgan mas'uliyatni tushunishga ham o'rgatish mumkin.

Sharq mutafakkirlarining asarlarini raqamli resurslar, videodarslar yoki onlayn kurslar orqali taqdim etish, talabalarining ajdodlarimizga nisbatan qiziqishni oshiradi. Bu yondashuv, yangi avlodning ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda sharq mutafakkirlarining asarlarini qo'llash, ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga, talabalarining axloqiy va ma'naviy jihatdan o'sishiga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining asarlari nafaqat ilmiy bilimlarni, balki insoniy qadriyatlarni, yaxshi xulqni, hamjihatlikni va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu asarlarni ta'lim jarayonida qo'llash, talabalarga mustaqil fikrlashni, tanqidiy yondashuvni va axloqiy mas'uliyatni o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. Xalq so'zi. 2016-yil 19-oktabr
2. Mavlonova R .A., N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2018-yil.
3. Boltayevna A.I. Tohir malik asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik g'oyalarini rivojlantirishning ta'lim-tarbiyaviy xususiyatlari. Tesis. Ilm fan va innovatsiya ilmiy amaliy konferensiyasi. in-academy.uz/index.php/si
4. Niyozov G., Q.Ahmedov, Q.Tojiboyev. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. Toshkent-"O'zbekiston"-2010-yil.

Internet saytlari:

5. www.ziynet.uz
6. www.google.com